XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-iyul VI-104-93-14-0-K/24 Toshkent shahri

Yakkasaroy va Yangihayot tumanlaridagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2024-yil 3-apreldagi 2- va 3-sonli yig‘ilish bayonlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Yakkasaroy va Yangihayot tumanlaridagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq;

Yangihayot tumanidagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

Yakkasaroy tumanidagi nomi qonun hujjatlari talablariga zid bo‘lgan ko‘chani qayta nomlash bo‘yicha berilgan taklif ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), Yakkasaroy tumani hokimligi (N.Allabergenova), Yangihayot tumani hokimligi (X.Inogamov) nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (mavzelar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar) to‘g‘risida mahalliy aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borsin.

4. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari (D.Raximova, A.Xen), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent shahar boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (B.Minasipov) ikki oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (mavzelar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar)da joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manzil o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda manfaatdor shaxslarni xabardor qilsin.

6. Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi (A.Rizashov) uch oy muddat ichida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (mavzelar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, berk ko‘chalar)da ko‘cha ko‘rsatkichlari (peshlavhalari)ni davlat tili talablariga mos ravishda belgilangan tartibda o‘rnatish va almashtirish ishlarini yakunlasin.

7. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (G.Kasimova)ga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Sagdullayev hamda Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari D.Raximova va A.Xen zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi

MATIBAYEV
TASPOLAT
BALTABAYEVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-104-93-14-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Yakkasaroy va Yangihayot tumanlaridagi nomsiz aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash bo‘yicha berilgan takliflar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	Ko‘cha	Muhandislar mahallasi	181-nomsiz ko‘cha	Rizqli	Qushbegi ko‘chasidan
2.	Ko‘cha	Rakatboshi mahallasi	177-nomsiz ko‘cha	Faxr	O‘rikzor ko‘chasidan Bo‘rijar kanaligacha
3.	Ko‘cha	Qushbegi, Dilbuloq mahallalari	175-nomsiz ko‘chaning bir qismi	Jahonbaxsh	Qushbegi ko‘chasidan Sergeli yo‘li shohko‘chasigacha
4.	Tor ko‘cha	Qushbegi mahallasi	175-nomsiz ko‘chaning bir qismi	Jahonbaxsh-1	Jahonbaxsh ko‘chasidan Kichik halqa yo‘li ko‘chasigacha
5.	Tor ko‘cha	Yakkasaroy mahallasi	176-, 178-nomsiz ko‘chalar	Bog‘ibo‘ston-5	Bog‘ibo‘ston ko‘chasidan
6.	Mavze	Choshtepa, Yangi Choshtepa mahallalari	yangi tashkil etilayotgan mavze	Yangi Choshtepa	Toshkent metropolitenining Chilonzor yo‘nalishidagi “Choshtepa” va “O‘zgarish” bekatlarini bog‘lovchi temir yo‘l, Salor kanali, Katta halqa yo‘li ko‘chasi, Jo‘nbo‘yi ko‘chasi, Jo‘nbo‘yi-1 tor ko‘chasi, Bahrin ko‘chalari oralig‘i
7.	Ko‘cha	Choshtepa, Yangi Choshtepa mahallalari	883-nomsiz ko‘cha, Choshtepa-3 tor ko‘chasi qismi, O‘zar ko‘chasi qismi	Tenglik	Choshtepa ko‘chasidan Katta halqa yo‘li ko‘chasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-104-93-14-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Yangihayot tumanidagi ayrim aholi punktlarining tarkibiy qismlarini qayta nomlash bo‘yicha berilgan takliflar
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	Mavze	Tashabbus, Yangi Umid mahallalari	2-qurilish hududi mavzesi	Yangihayot-1	Mirzo Tursunzoda ko‘chasi, Mehrigiyo ko‘chasi, Katta halqa yo‘li ko‘chasi, Xonobodtepa shohko‘chasi oralig‘i
2.	Mavze	Yangihayot, Oriyat mahallalari	8-qurilish hududi mavzesi	Yangihayot-2	Qo‘rg‘ontepa ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa-1 tor ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa-2 tor ko‘chasi, Katta halqa yo‘li ko‘chasi oralig‘i
3.	Mavze	Yangiturmush mahallasi	3a-qurilish hududi mavzesi qismi	Yangihayot-3	Yangiturmush ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa ko‘chasi, Mehrigiyo ko‘chasi oralig‘i
4.	Mavze	Yangiturmush mahallasi	3a-qurilish hududi mavzesi qismi	Yangihayot-4	Mirzo Tursunzoda ko‘chasi, Yashilmakon ko‘chasi, Yashilmakon-1 tor ko‘chasi, Qiziltepa ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa ko‘chasi, Yangiturmush ko‘chasi, Mehrigiyo ko‘chasi oralig‘i
5.	Mavze	Marhamat, Gulshanobod mahallalari	9-qurilish hududi mavzesi	Yangihayot-5	Qo‘rg‘ontepa ko‘chasi, Shokirariq ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa-1 tor ko‘chasi, Qo‘rg‘ontepa-2 tor ko‘chalari oralig‘i

6.	Mavze	Humo mahallasi	3b-qurilish hududi mavzesi	Yangihayot-6	Mirzo Tursunzoda ko‘chasi, Shokirariq ko‘chasi, Romitan ko‘chasi, Shokir kollektori oralig‘i
7.	Ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar ko‘chasi qismi	Jo‘nbo‘yi	Toshkent metropolitenining Chilonzor yo‘nalishidagi “Choshtepa” va “O‘zgarish” bekatlarini bog‘lovchi temir yo‘ldan boshlab Tenglik ko‘chasigacha
8.	Tor ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar ko‘chasi qismi, O‘zar-2 tor ko‘chasi qismi	Jo‘nbo‘yi-1	Jo‘nbo‘yi ko‘chasidan Yangi Choshtepa mavzesi bo‘ylab
9.	Ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar-2 tor ko‘chasi qismi	Bahrin	Jo‘nbo‘yi ko‘chasidan Jo‘nbo‘yi-1 tor ko‘chasigacha
10.	Berk ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar-2 tor ko‘chasi qismi	Bahrin-1	Bahrin ko‘chasidan
11.	Berk ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar-2 tor ko‘chasi qismi	Bahrin-2	Bahrin ko‘chasidan
12.	Berk ko‘cha	Choshtepa mahallasi	O‘zar ko‘chasi qismi	Tenglik-1	Tenglik ko‘chasidan
13.	Ko‘cha	Choshtepa mahallasi	Choshtepa ko‘chasi qismi	Vorislar	Choshtepa ko‘chasidan Tenglik ko‘chasigacha

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 2-iyuldagi
VI-104-93-14-0-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Yakkasaroy tumanidagi nomi qonun hujjatlari talablariga zid bo‘lgan ko‘chani qayta nomlash bo‘yicha berilgan taklif
RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning yangi nomi	Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi
1.	Ko‘cha	Dilbuloq mahallasi	Shota Rustaveli 2-vagon tor ko‘chasi	Dilbuloq	Sergeli yo‘li shohko‘chasidan